Ilm-fan integratsiyasi: O’zbekiston va Rossiya olimlari materialshunoslikning istiqbolli yo’nalishlarini muhokama qilmoqdalar

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutida Rossiya Fanlar akademiyasi (RFA) Ural filiali delegatsiyasi bilan rasmiy uchrashuv bo’lib o’tdi.







Muzokaralar davomida tomonlar quyidagi strategik muhim yo’nalishlar bo’yicha hamkorlikni kengaytirishga kelishib oldilar:

- Ekstremal sharoitlarda ishlovchi kompozit va keramik materiallar sintezi;
- Quyosh energiyasini kontsentrlash va saqlash uchun energiyatejamkor qurilmalar yaratishda innovatsion yondashuvlar;
- Metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar: Ikki davlat sanoati uchun zarur bo’lgan nodir metallar va qotishmalarni olishning yangi usullari;
- Yosh olimlar uchun stajirovkalar tashkil etish va qo’shma «Double Degree» (ikki tomonlama diplom) dasturlarini rivojlantirish.

Tashrif doirasida mehmonlar institutning noyob ilmiy obyekti — “Katta Quyosh pechi” faoliyati bilan yaqindan tanishib, yuqori haroratli sintez jarayonlarini kuzatdilar. Uchrashuv yakunida kelgusi yil uchun mo’ljallangan "Yo’l xaritasi"ni ishlab chiqish va xalqaro grant tanlovlarida birgalikda ishtirok etish bo’yicha dastlabki kelishuvlarga erishildi.